

2019 yilning natijalari va 2020 yilda Biznes-rejaning ko'rsatkichlarini va ustuvor yo'nalishlari

Bankning moliyaviy barqarorligi, investitsiyaviy faolligini rag'batlantirish va ishonchliligini yanada oshirish maqsadida Bankning resurs bazasini mustahkamlash va rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan.

2020 yil 1 yanvar holatiga Bank tomonidan quyidagi natijalarga erishildi. Ular quyidagicha:

1. Hisobot sanasiga aholi va yuridik shaxslar uchun 11 ta filial, 76 ta bank xizmatlari markazlari, 44 ta chakana amaliyotlar kassasi, 27 ta valyuta ayirboshlash shoxobchalari xizmat ko'rsatib kelmoqda.

2. Xalqaro me'yor va standartlarga muvofiq, shu jumladan, bankning depozit va kredit siyosati banklarga nisbatan qo'yilgan me'yoriy talablarni hisobga olgan holda yanada takomillashtirildi, buning natijasida bankning me'yoriy ko'rsatkichlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan ancha o'sishga erishildi. Jumladan, bankning aktivlari 3 317 mlrd. so'm tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 583 mlrd. so'mga yoki 21,3 foizga oshgan. Aktivlar daromadliligi (ROA) 5,94 foizni, Kapital daromadliligi (ROE) 38,04 foizni tashkil etdi.

3. Bankning resurs bazasini mustahkamlash, omonat va depozitlarning yangi jozibador turlarini joriy qilish yo'li bilan aholi va xo'jalik sub'ektlarining bo'sh pul mablag'larini bank aylanmasiga keng ko'lamda jalb etish chora-tadbirlari amalga oshirildi. Bankning jami kapitali 519 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 201 mlrd. so'mga yoki 63,1 foizga oshgan, aholi omonatlar qoldig'i 390 mlrd. so'mni tashkil etdi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 117 mlrd. so'mga yoki 43 foizga oshgan.

4. Ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etgan holda ko'rsatilayotgan bank xizmatlari ko'lamini kengaytirish va sifatini oshirish, shuningdek bank plastik kartochkalaridan foydalangan holda naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimini kengaytirish bo'yicha ishlar olib borilmoqda. 2019 yilda Trastbank tizimida "TRUSTPAY" keng ko'lamli mobil ilovasi tadbiq etildi va 50 ta dona keng

ko‘lamli bankomatlar o‘rnatilib aholiga hizmat qilmoqda, ulardan 10 ta dona “HUMO” tizimida ishlovchi bankomatlardir.

Kapital monandligi ko‘rsatkichlari.

2020 yilning 1 yanvar holatiga Bankning kapital monandligi ko‘rsatkichi 16,5 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 13%), birinchi darajali kapital monandligi ko‘rsatkichi 12,4 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 10%), leveraj ko‘rsatkichi 9,3%ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 6%) tashkil etdi.

Likvidlik ko‘rsatkichlari.

Bankning likvidlik me‘yorlari barcha talablarga javob bermoqda, xususan joriy likvidlik me‘yori 53,2 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 30%), lahzali likvidlik me‘yori 29,7 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 10%), likvidlikni qoplash me‘yori 164,8 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 100%) va sof barqaror moliyalashtirish me‘yori 119,1 %ni (O‘zRMB tomonidan belgilangan me‘yor 100%) tashkil etdi.

“Trastbank” XAB "Fitch Reytings" yetakchi xalqaro reyting agentligi tomonidan “B” (barqaror) reyting darajasi qayta tasdiqlangan.

2020-yilda “Trastbank”ning rejalari:

Birinchi yo‘nalish - iqtisodiy rivojlanish, barcha asosiy ko‘rsatkichlarning, depozitlarning, daromad keltiruvchi aktivlarning, foydaning yuqori o‘shish sur‘atlarini ta‘minlashdir.

Ikkinchidan, chet el valyutasida kreditlash maqsadida chet el kredit liniyalarini jalb qilish.

Uchinchidan, viloyat va Toshkent shaxridagi barcha filiallarini rivojlantirish, reja asosida qoshimcha bank xizmatlari markazlarning ochilishi.

To‘rtinchidan, mamlakatda tadbirkorlikni rivojlantirishda bankning, shu jumladan filialning kredit, chakana biznes va plastik kartalar bo‘limlari ahamiyatini oshirish.

Beshinchidan, yangi korporativ mijozlarni jalb qilish.

2020 yil uchun Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlari quyidagilardan iborat:

- kreditlash;
- hisob-kassa xizmati;
- tashqi-iqtisodiy faoliyat;
- filiallarning resurslar va mijozlar bazasini kengaytirish;
- chakana biznesni rivojlantirish.

2019 yil yakuniga ko‘ra "Trastbank" XAB biznes-rejasida belgilangan asosiy ko‘rsatkichlarining bajarilishi bo‘yicha ma‘lumot				
Biznes-rejaning asosiy ko‘rsatkichlari	Reja (mln.so‘m)	Amalda (mln.so‘m)	Farq (mln.so‘m)	Bajarilishi (%)
Aktivlar		3 317 119		
Kredit portfeli	1 400 000	1 737 205	337 205	124
Jalb qilingan depozitlar	2 936 572	2 652 204	-284 368	90
Daromad	530 411	622 458	92 047	117
Xarajat	380 410	425 294	44 884	112
Foyda	150 001	197 164	47 163	131